

Shayx Abdulaziz Mansur (1944)



Shayx Abdulaziz Mansur (1944)



Shayx Abdulaziz Mansur 1944 yili Farg'ona tumanida tug'ilgan. Maktabni tamomlagandan so'ng Oltiariq tumanı va Marg'ilon shahridagi turli idoralarda xizmat qilgan. 1975–79 yillari Imom Buxoriy nomidagi Toshkent Islom oliv ma'hadida tahsil oldi. Oliy ma'hadni bitirgach, "Sovet Sharqi musulmonlari" jurnali tahririyatida mas'ul kotib bo'ldi.

1980–81-yillari Sudan Respublikasi Islom universitetida tahsilni davom ettirdi. 1982–2006 yillari diniy idora Fatvo bo'limi mudiri, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida ilmiy xodim, "Mavarounnahr" nashriyoti mudiri, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita bo'lim boshlig'i, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat maslahatchisi, Toshkent Islom universiteti prorektori kabi mas'ul lavozimlarda xizmat qildi. 2006 yildan buyon O'zbekiston musulmonlari idorasi raisining o'rinnbosaridir.

Shayx Abdulaziz Mansur amalga oshirgan "Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri" qayta-qayta nashr qilindi. Ustoz "Sahihi Buxoriy"ni tarjima va sharh qilib, ikki jilda nashr ettirgan. Shayx Abdulaziz Mansur O'zbekiston musulmonlari idorasi huzurida tuzilgan diniy adabiyotlar nashri bo'yicha maxsus hay'at raisidir.

Xalqaro Islom fiqhi akademiyasi, Musulmon olimlari oliy hay'ati a'zosi. Ko'plab maqolalar, kitoblar muallifi.

2023-09-25 20:43:06